ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24165098

Loyihaviy faoliyat asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlashi va til kompetentligini rivojlantirish metodikasi

Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna –
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Toshtemirova Gulsanamoy Ilhomjon qizi –
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida loyihaviy faoliyat asosida ijodiy fikrlash va til kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Loyihaviy ta’limning o‘quvchilar mustaqil fikrlashi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifodalashi, muloqotga kirishishi hamda muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashishidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim jarayonida loyiha metodidan foydalanish orqali o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, lug‘at boyligini kengaytirish va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishga doir metodik yondashuvlar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *loyihaviy faoliyat, boshlang‘ich ta’lim, ijodiy fikrlash, til kompetentligi, kreativlik, nutqiy rivojlanish, kommunikativ kompetensiya, mustaqil fikrlash, loyiha metodi.*

Методика развития творческого мышления и языковой компетентности учащихся начальных классов на основе проектной деятельности

Аннотация. *В данной статье рассматриваются педагогические возможности развития творческого мышления и языковой компетентности учащихся начальных классов на основе проектной деятельности. Научно анализируется значение проектного обучения в развитии самостоятельного мышления учащихся, умении выражать свои мысли в устной и письменной форме, взаимодействовать и творчески подходить к решению проблемных ситуаций. Также предлагаются методические подходы к повышению речевой активности, обогащению словарного запаса и формированию коммуникативных навыков младших школьников посредством проектной деятельности.*

Ключевые слова: *проектная деятельность, начальное образование, творческое мышление, языковая компетентность, креативность, речевое развитие, коммуникативная компетенция, самостоятельное мышление.*

Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna, Toshtemirova Gulsanamoy Ilhomjon qizi

Methodology for developing creative thinking and language competence in primary school pupils through project-based activities

Annotation. *This article examines the pedagogical opportunities for developing creative thinking and language competence among primary school pupils through project-based learning. It analyzes the importance of project activities in fostering independent thinking, oral and written communication, interaction, and creative problem-solving skills. The article also proposes methodological approaches to improving pupils' speaking activity, enriching their vocabulary, and developing communicative skills through project-based learning in primary education.*

Keywords: *project-based learning, primary education, creative thinking, language competence, creativity, speech development, communicative competence, independent thinking.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – mustaqil fikrlaydigan, o‘z nuqtayi nazarini erkin ifodalay oladigan, muloqot madaniyatiga ega hamda ijodiy yondashuv asosida muammolarga yechim topa oladigan yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchi shaxsining intellektual, nutqiy va ijodiy rivojlanishida muhim poydevor hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda bolaning fikrlash qobiliyati, nutqiy faoliyati, atrof-muhitga munosabati va bilim olishga bo‘lgan qiziqishi shakllanib boradi. Hozirgi ta’lim jarayonida o‘quvchilarga faqat tayyor bilimlarni yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, ularni mustaqil izlanishga, o‘z fikrini asoslashga, savol berishga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga va yangi g‘oyalar yaratishga yo‘naltirish zarur. Bu jarayonda ijodiy fikrlash va til kompetentligini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘quvchining ijodiy fikrlashi uning o‘z fikrini aniq, ravon va izchil ifodalashi bilan chambarchas bog‘liq. Til kompetentligining rivojlanishi esa o‘quvchiga o‘z qarashlarini bayon etish, boshqalarning fikrini tinglash, munozarada ishtirok etish va o‘zaro hamkorlik qilish imkonini beradi.O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish hamda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, ta’lim mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarning bilimini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish va kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish boshlang‘ich ta’lim oldiga yangi pedagogik vazifalarni qo‘ymoqda. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda loyihaviy faoliyat samarali pedagogik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Loyihaviy faoliyat o‘quvchilarni muayyan muammoni aniqlash, ma’lumot to‘plash, uni tahlil qilish, o‘z g‘oyalarini ilgari surish va yakuniy natijani taqdim etishga yo‘naltiradi. Ushbu jarayonda o‘quvchi nafaqat bilim oluvchi, balki izlanish olib boruvchi, fikr bildiruvchi va muayyan natijani yaratuvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash va til kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganishda loyihaviy ta’lim, kreativ fikrlash, kommunikativ kompetensiya hamda o‘quvchilarning nutqiy faoliyatiga oid ilmiy qarashlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek pedagogika fanida loyihaviy faoliyat, ijodiy

fikrlash va kompetensiyaviy yondashuv masalalari turli tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, X.Umarovning boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi ilmiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotida mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik faoliyati va innovatsion yondashuvning o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratilgan. Muallif loyiha va tadqiqotchilik texnologiyalarini ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim vositalari sifatida izohlaydi. Yunus Azimov va Zulayxo Ro‘ziyevaning ilmiy ishlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining loyihaviy-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotchilar loyihaviy faoliyatni tashkil etishda muammoni aniqlash, ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish va natijani taqdim etish bosqichlariga alohida e’tibor qaratadilar. Ushbu yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ham izlanishga, o‘z fikrini mustaqil bayon etishga va ijodiy faoliyatga jalb qilish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ergasheva Odina Raximjon qizining tadqiqotida ijodiy faoliyatni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Muallif loyiha faoliyati, muammoli ta’lim, interfaol metodlar va hamkorlikda o‘qitishning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib beradi. Mazkur qarashlar loyihaviy faoliyatni o‘quvchilarning mustaqil qaror qabul qilishi va yangi g‘oyalarni ilgari surishi bilan bog‘liq holda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Xorijiy pedagogik qarashlarda ham loyihaviy ta’lim o‘quvchilarning bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashi, mustaqil izlanishi va muloqotga kirishishiga imkon beruvchi yondashuv sifatida talqin qilinadi. Xususan, loyiha asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar muayyan muammoni hal etish uchun birgalikda faoliyat olib boradilar, o‘zaro fikr almashadilar va yakuniy natijani taqdim etadilar. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, loyihaviy faoliyat va ijodiy fikrlash masalalari pedagogik tadqiqotlarda muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash bilan til kompetentligini yagona pedagogik jarayon sifatida rivojlantirish masalasi yanada chuqur metodik yondashuvni talab etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Loyihaviy faoliyat asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlashi va til kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni tahlil qilish natijasida ushbu ikki kompetensiya o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. O‘quvchi loyiha ustida ishlash jarayonida mustaqil fikrlaydi, ma’lumot izlaydi, savollar tuzadi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifodalaydi. Tadqiqot doirasida loyihaviy faoliyatni tashkil etishning quyidagi natijador jihatlari belgilandi: o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammoga turli yechimlar taklif qilish ko‘nikmalari rivojlanadi; yangi so‘zlarni o‘zlashtirish va ulardan nutq jarayonida foydalanish imkoniyati kengayadi; o‘z fikrini izchil, aniq va tushunarli bayon qilish malakasi shakllanadi; guruhda ishlash, fikr almashish va o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi; loyiha natijasini taqdim etish orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi.Masalan, boshlang‘ich sinf tabiiy fan darsida tashkil etiladigan “Tabiatni asraylik” loyihasi davomida o‘quvchilar tabiatni muhofaza qilishga oid ma’lumotlarni to‘playdi, rasmlar asosida ijodiy materiallar tayyorlaydi, loyiha uchun shior va tavsiyalar ishlab chiqadi. Yakunda esa o‘z ishlarini sinfdoshlari oldida taqdim etadi. Bu jarayonda ijodiy fikrlash bilan bir qatorda lug‘at boyligi, bog‘lanishli nutq va muloqot kompetentligi ham rivojlanadi. Shunday qilib, loyihaviy faoliyatni ta’lim jarayoniga maqsadli tatbiq etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlashi va til kompetentligini birgalikda rivojlantirish uchun samarali pedagogik imkoniyat yaratadi.

XULOSA

Loyihaviy faoliyat boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlashi va til kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Chunki loyiha asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, muammolarga ijodiy yondashishga, o‘z fikrini erkin va ravon ifodalashga undaydi.Tadqiqot davomida loyihaviy

faoliyatning muammoli vaziyatlarni hal qilish, axborot izlash, ijodiy mahsulot yaratish va taqdimot o‘tkazish kabi bosqichlari o‘quvchilarning bilish hamda nutqiy faolligini oshirishga xizmat qilishi asoslandi. Shu asosda quyidagi xulosalarga kelindi: boshlang‘ich ta’limda loyihaviy faoliyatdan muntazam foydalanish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi;loyiha topshiriqlarini nutqiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish til kompetentligini shakllantirish imkoniyatini kengaytiradi; guruhli loyihalar o‘quvchilarda hamkorlik, muloqot va o‘zaro fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;loyiha natijalarini taqdim etish o‘quvchilarning mustaqil fikr bildirish va o‘z fikrini asoslash malakasini mustahkamlaydi. Demak, loyihaviy faoliyatni boshlang‘ich sinf darslariga maqsadli va izchil tatbiq etish ijodiy fikrlaydigan, o‘z fikrini ravon ifodalay oladigan hamda mustaqil qaror qabul qilishga intiladigan o‘quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. Rahmonova D.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qituvchining roli // ORIENS. – 2022.
3. Saparova U.B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // ORIENS. – 2022. – B. 239–244.
4. Abdumuminova O. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ yondashuvlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish // Modern Science and Research. – 2024. – B. 689–695.
5. Abduxalimova Y. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026. – 4-jild, 3-son.
6. Madraimova H. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlar tizimi // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026.
7. Vaisova Y. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026.
8. Tillaboyeva H. Boshlang‘ich ta’limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026.